

332.2
1-93

I.I. IXLOSOV, D.M. RIZAYEVA

DAVLAT KADASTRI

A S O S L A R I



332.2

I-92


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

I.Ixlosov, D.M.Rizayeva

**DAVLAT KADASTRLARI
ASOSLARI**

o‘quv qo‘llanma



**Toshkent
“NOSHIR”
2019**

UO•K 332.2 (075.8)

KBK 65.32-5ya73

I-92

TAQRIZCHILAR:

U. Imomqulov – Geodeziya va kartografiya Milliy markazi Davlat kadastrlari yagona tizimi bo‘limi boshlig‘i.

MAS‘UL MUHARRIR:

X.Muborakov – O‘zMU Geodeziya va kartografiya kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

Davlat kadastr asoslari (matn): o‘quv q‘ollanma/ I.Ixlosov, DM.Rizayeva. –Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. –248 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalarining 5311500 – “Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda kadastr ishlarini rivojlantirish tarixi, xorijiy davlatlarda kadastr ishlarini olib borish tajribasi, O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tartibi, normativ huquqiy asoslari, respublika hududlarini kadastr birliklariga bo‘lish va kadastr raqamlash, Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni tashkil etish va yuritish bayon etilgan. Unda ko‘chmas mulk kadastr guruhi, chiziqli, tabiiy resurs va tabiiy hududlar guruhlariga kiruvchi kadastrlarni yaratish va yuritishni o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, Davlat kadastrlari yagona tizimiga tarmoq kadastrlaridan kiritiladigan ma‘lumotlar tarkibi va ularni taqdim etish tartibi bayon qilingan.

O‘quv qo‘llanmadan talabalar, magistrantlar, doktorantlar va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin. Kitob tarmoq davlat kadastrlari mutaxassislari uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

UDK 332.2 (075.8)

KBK 65.32-5ya73

I-92

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-5484-7-3

© I.Ixlosov, D Rizayeva, 2019

© “NOSHIR”, 2019

KIRISH

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning rivojlanishni hisobga olib, tabiiy va xo'jalik resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini majmuaviy tahlil qilish va baholash eng zarur masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining asosiy elementlaridan hisoblangan kadastr tizimi O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining asosiy tamoyillariga va mazmuniga to'la muvofiq keladi. Bugungi kunda iqtisodiy sohalaridagi islohotlarni chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish uslubiyoti, ilmiy tamoyillarini va konsepsiyalari Davlat kadastrini yurituvchi mas'ul vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan belgilab berilgan.

Respublikamizda yer, konlar, foydali qazilmalar va texnologen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastrini; davlat suv kadastrini; davlat o'rmon kadastrini; qo'riqlanadigan tabiiy hududlar davlat kadastrini; binolar va inshootlar davlat kadastrini; gidrotexnika inshootlari davlat kadastrini; madaniy meros obyektlari davlat kadastrini; avtomobil yo'llari davlat kadastrini; temir yo'llar davlat kadastrini; aloqa obyektlari davlat kadastrini; energetika obyektlari davlat kadastrini; chiqindilarni ko'mish va utilitatsiya qilish joylari davlat kadastrini; tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini (xavfli geologik jarayonlar bo'limi) kartografiya-geodeziya va hududlari davlat kadastrilari tashkil etilib, mas'ul davlat organlari zimmasiga yuklatilgan.

Davlat kadastrlari ma'lumotlari asosida geografik axborot tizimi qatlamlari yaratilib, ushbu axborotlar bazasi vazirliklar,

davlat qo'mitalari, mahalliy hokimiyat, soliq organlari yuridik va jismoniy shaxslar uchun zaruriy ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish sohasida orttirilgan ko'p yillik tajriba va yig'ilgan materiallarni o'rganish natijalari hisoblanadi. O'quv qo'llanmani nashr etishdan maqsad Respublikamizda Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning normativ-huquqiy bazasi to'lig'icha tashkil etilgan bo'lib, bu jarayon bo'yicha tizimli ta'lim berish uchun yangi avlod darsliklarini, o'quv qo'llanmalarni va boshqa o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni o'quvchilarga taqdim etishdan iborat. Shu sababdan, Respublikamizda Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni mukammal ta'riflab bera oladigan o'quv qo'llanmani yaratishni maqsad qilib qo'yildi.

O'quv qo'llanma olti bobdan iborat bo'lib, **Birinchi bobda** Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni tashkil etish va uni boshqarishga oid masalalar bayon etiladi, unda kadastr ishlarining rivojlantirish tarixi, davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarning tajribalari, O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarni tajribalari, O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tajribalari, O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni tashkil etish va boshqarish, O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda kadastr raqamlarini shakllantirish, Davlat kadastrlari yagona tizimini (DKYAT) yaratish va yuritish kabi asosiy masalalar o'z aksini topgan.

Ikkinchi bobda: ko'chmas mulk kadastrlar guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari, davlat yer kadastr, binolar va inshootlar davlat kadastr, davlat shaharsozlik kadastr, madaniy meros obyektlari davlat kadastr, gidrotexnika inshootlari davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflab beriladi.

Uchinchi bobda: chiziqli kadastrlar guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari; avtomobil yo'llari davlat kadastri, temir yo'llar davlat kadastri, aloqa obyektlari davlat kadastri, energetika obyektlari davlat kadastri, yetkazib berish quvurlari davlat kadastri, kartografiya-geodeziya davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflab beriladi.

To'rtinchi bobda: tabiiy resurslar guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari: konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri, davlat suv kadastri, davlat o'rmon kadastri, o'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastri, hayvonot dunyosi davlat kadastri, chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflab beriladi.

Beshinchi bobda: tabiiy hududlar guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari: muhofaza etiladigan hududlar davlat kadastri, tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri, texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri, hududlarning yaratish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflab beradi.

Oldinchi bobda: Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibi va ularning taqdim etish tartibi, tematik qatlamlari, Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etiladigan ma'lumotlar tarkibi, davlat kadastrlari bo'yicha tematik qatlamlar atributiv ma'lumotlariga oid ma'vzular ko'rib chiqiladi.

O'quv qo'llanma birinchi marotaba chop etilayotganligi sababli, barcha o'quvchilar va qiziquvchilar tomonidan ushbu o'quv qo'llanmaning tuzilishi va mazmuniga kiritilgan taklif va mulohazalar minnatdorchilik bilan qabul qilinadi. Mualliflar o'quv qo'llanmani yozishda o'z taklif va mulohazalarni bildirgan hamda maslahatini ayamagan Geodeziya va kartografiya milliy markazining Ko'chmas mulk bo'limi boshlig'i M.X.Saidovga va Geodeziya va kartografiya milliy markazining Davlat kadastrlari yagona tizimi bo'limi boshlig'i U.X.Imomqulovlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

1-BOB. DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISH

1.1. KADASTR ISHLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Hozirgi vaqtda kadastr jahondagi barcha mamlakatlarda yuritilmoqda, u tabiiy resurslardan foydalanishni, muhandislik faoliyatini, ekologik, ijtimoiy hodisalarni hisobga olish, holatini baholash tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir.

Kadastr o'z sharoiti bilan bir xil bo'lgan hududiy birliklarni ajartirishga, ularni xaritaga tushirish, sifat va miqdor tavsiflaridan foydalangan holda tariflashga mo'ljallangan.

Shunisi ahamiyatliki, xorijiy mamlakatlar tajribasida *kadastr* tushunchasini ko'p hollarda *ko'chmas mulk* tushunchasi bilan bog'lashadi. Shuning bilan birglikda *ko'chmas mulk* deganda quyidagilar tushiniladi:

– yerga mustahkam bog'langan (bog'liq) soni va qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan, yer uchastkalarga va boshqa ko'chmas mulklarga bo'lgan mulkchilikni *umumiy xatga olish* (*ro'yxatga olish*).

“**Kadastr**” so'zi butun dunyoda tarqalgan bo'lib, faqat Skandinaviya davlatlari uning o'rniga “**Reyestr**” so'zidan foydalanishadi. “**Kadastr**” so'zini kelib chiqishini etimolog olimlar har xil tushuntirishadi. Masalan, fransuz etimologi Blondxeym “**kadastr**” so'zi grekcha “**katastikon**” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “**yozuv daftari**” degan ma'noni bildiradi deb hisoblaydi.

Boshqa olim, Dobner (1892 y.) “**kadastr**” so'zini o'rta asr lotin so'zi “**kapitastrum**” bilan bog'laydi, bu so'z ikkita so'zdan “**kapitum**” va “**registrum**” so'zlarining qo'shishidan tashkil topgan bo'lib, bo'lingan Rim viloyatlari hududlarni baholash birligi “**reystri**” degan ma'noni be-

radi, Blondxeymning ta’rifi 1185-yilda yozilgan Venetsiya hujjatlariga asoslangan bo‘lib, haqiqatga yaqinroq deb tan olinadi.

1985-yilda kadastr va yer axborotlari xalqaro ekspertlar guruhi kadastrga kengroq umumlashtirilgan ta’rif berishdi.

Kadastr, bu – davlat tomonidan yerga bo‘lgan mulkchilik ma’lumotlarini uslubiy jihatdan tartibga solish uchun aniq bir davlat yoki tuman miqyosida mulkchilik uchastkalari chegaralarini syomka qilish natijasiga tayangan holda hisobga olish. Har bir mulkka aniq tartib raqami – identifikator beriladi. Mulchilik chegaralari va tartib raqami odatda katta masshtabli xaritalarda aks ettiriladi. Kadastr bilan “Kadastr syomkasi” atamasi chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ko‘chmas mulk uchastkalarining chegaralari syomkasini bildiradi.

Kadastr tushinchasi yer uchastkalaridan soliq olish, mulkiy va yuridik huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kerakli bo‘lgan tizimli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Tashkil etilish maqsadiga muvofiq turi va tasnifiga qarab kadastr har xil ma’noga ega bo‘ladi.

Maqsadiga qarab kadastrni uchta katta toifaga ajartish mumkin:

1) **soliq** yoki **fiskal** (*xazina*) – soliq olish o‘lchamini va tartibini belgilash maqsadida ko‘chmas mulkni tasniflash (*ta’riflash*) uchun;

2) **huquqiy** yoki **yuridik** – mulkka egalik huquqini himoya qilish uchun;

3) **ko‘p maqsadli** – huquqiy, iqtisodiy, ekologik, shaharsozlik sohalariga (*spektraga*) oid vazifalarini yechish, shuningdek, hududlarning rivojlanishini rejalashtirish va boshqarish uchun. Ko‘p maqsadli kadastr har xil turdagi obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: tabiiy resurslar, infrastruktura, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va h.

Kadastr to'g'risida quyidagi tushinchalar ham mavjud:

– bir xil ko'rishdagi kadastr, qaysiki bitta obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi (*qurilma, tom, vodoprovod, kvartira va h.*);

– ko'p xil ko'rishdagi kadastr, qaysiki bir xil turdagi bir nechta obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi (*muhandislik infrastrukturasi kadastr, tabiiy resurslar kadastr, ijtimoiy hodisalar kadastr va h.*).

Hududiy prinsiplarga muvofiq ko'p xil ko'rishdagi kadastr uchta darajada yuritiladi:

Davlat darajasida – umumdavlat boshqaruvi manbai sifatida mamlakatning barcha hududini qamrab oladi.

Davlat regionlari bo'yicha – aniq bir viloyat (shtat, kray) hududini qamrab oladi.

Davlat hududiy bo'linmalari bo'yicha – tuman (shahar) hududa joylashgan, kadastr hisobiga olingan barcha obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kadastrning zamonaviy tushunchasi, uzoq davr tarixiy jarayonlarning natijalarini o'z ichiga qamrab olgan. O'tgan davr kadastr faoliyatini tahlil qilish va uni bugungi kunda yaxshiroq tashkil etish hamda ishonch bilan kadastrning ke-lajagini ko'z oldimizga keltirish imkoniyatini yaratadi.

Antik davrlardan boshlab har xil davlatlarda fuqarolarga yerga egalik qilishni kafolatlash zaruriyati va soliq olishni ta'minlash yer kadastrini yaratish va yuritishga asos soldi. Masalan, o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bizning eramizdan 4000 yil oldin allaqachon Xoldeyda kadastr mavjud bo'lgan – loydan yasalgan taxtachalarga mixxatda (klinopisda) yer uchastkasi tushirilgan, tomonlari, o'lchamlari va maydoni ko'rsatilgan.

Eramizdan 3000 yil oldin misrliklar tomonidan kadastr syomkasi o'tkazilgan. Bu ishlar natijasida ishlab chiqilayotgan yer uchastkasining chegaralari o'rnatilgan, yer to'g'risidagi

batafsil ma'lumotlar, yer uchastkasining chegarasi va maydoni, egalik qiluvchilarning nomlarini hisobga olgan holda ro'yxatga olingan. Keyinchalik (bizning eramizdan 1700 yil oldin) *Misrda* yangi syomka o'tkazilgan, bundan maqsad yerni taqsimlash va ko'chmas mulkdan soliq olishni amalga oshirish bo'lgan. Olingan daromadning 1/5 qismi soliq sifatida to'langanligi aniqlangan, bu miqdorga bizning davrimizgacha amal qilinib kelingan. Bunday yondashuv to'rt ming yildan ortiq davr mavjud bo'lgan, keyinchalik XX asrda u mukammallashtirilgan.

Taxminan eramizdan 600 yil oldin mavjud bo'lgan *Gretsiyadagi* jamiyat tuzilishi bir qator qonunlarga asoslangan bo'lib, bu qonunlar kichik yer egalarning qarzlarga botishi, o'zlari egalik qilayotgan yerlarini yo'qotishgacha olib keldi. Eramizdan 594 yil oldin maqsadli kadastrga tayangan Solona qonunchiligi jamiyatda tartibni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi, ko'chmas mulk bo'yicha qarzlari bekor qilindi, qulchilik qarzlari va katta-katta yer maydonlarga (bo'shliqlariga) egalik qilishni bekor qildi. Fiskal soliq olishni kafolatlash maqsadida yerni qayta taqsimlash o'tkazildi.

Rimda birinchi kadastr, eramizdan oldin VI asrda Servi Tulliy tomonidan tashkil etilgan bo'lib "Tabules senzuales" deb nomlangan. Bu kadastrda syomka ko'chmas mulkning perimetri bo'yicha olib borilgan, yer turining tarkibi, unga ishlov berish, sifati va hosildorligi hisobga olingan holda soliq miqdori belgilangan. Syomka ma'lumotlari mulk egalarning so'zlaridan olingan, agar ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilsa, yer o'lchovchi tayinlanib, u tomonidan tekshiruv o'tkazilgan. Ko'chmas mulk maydoni vaqtga, uni shudgor qilish uchun sarflangan qo'sh ho'kiz soniga yoki ekish uchun kerakli bo'lgan urug'lik miqdoriga qarab baholangan.

Buyuk Karl davrida ko'chmas mulkka soliq joriy etilgan bo'lib, u **ushr** (*daromadning o'ndan biri miqdori*) sifatida

ma'lum. Ammo bunday soliqlarni yig'ish qadim zamondagi Rim kitoblaridagi yozuvlarga asoslangan bo'lganligi sababli, samarasiz bo'lgan. Feodalizm davrida eramizdan oldingi 900-yildan 1200-yilgacha syuzerenlar va ruhoniylar ko'chmas mulkka bo'lgan egalikni hujjat imzolash orqali ro'yxatdan o'tkazishni qo'llab quvvatlashgan.

Italiyada 1160-yillarda fiskal maqsad bilan yer kadastr tashkil etilgan. Milanda 50 yil davomida (1260-1310 yillar) kadastr syomkalari o'tkazilgan, ammo syomka natijalaridan soliq olish tizimini o'rnatish uchun ma'lumotlar olinmagan.

Angliyada birinchi kadastr 1066-yillarda tashkil topgan sanalanadi, uning maqsadi ko'chmas mulkka soliq belgilash bo'lgan. Bu kadastr xalq tomonidan "Barchaning umumiy sud kuni kitobi" ("*Domesday book*" yoki "*Книга дня всеобщего суда*") deb nomlangan, modomiki kimdir soliq idoralarini aldagan bo'lsa, oqibatda unga qarshi qo'llanishi mumkin bo'lgan.

Fransiyada birinchi kadastrlarning ma'lum bo'lishi 1269-yil sanaladi. Dastlab "Hisoblar kitobi" deb nomlangan kadastr muvaffaqiyatga erisha olmadi. Faqat Lui XIV davrida unga tegishli bo'lgan "*Tabaqasidan qat'iy nazar kadastr odamlarni tenglashtirish kerak*" degan mashhur so'zidan keyin fransuzlar kadastr syomkasi asosida fiskal tizimni muvaffaqiyatli tatbiq eta olishdi.

Yangi davr yillarida ishlab chiqilgan asboblardan va usullardan kadastr uchun suratga olishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. 1608-yil Galileo Galiley tomonidan 100 baravar kattalashtirilgan teleskop kashf etildi. 1590-yilda avstriyalik matematik Yan Priterius "Menzula Pretoriani" nomi bilan zamonaviy planshet tayyorladi. 1615-yilda gollandiyalik Snel-Lius triangulyatsiyani topografiyada qo'llash usulini nashr etdi. 1730-yil birinchi teodolit kashf etildi.

Boshqa turdagi kadastrlarning rivojlanishida Fransiya kadastrini alohida o'ringa ega hisoblanadi. 1801-yillarda Napoleon Fransiya hududida ko'chmas mulkka soliqni adolatli taqsimlashni o'rganib chiqish uchun komissiya tuzdi. Undan oldin 1800 alohida hududda kadastr uchun suratga olish ishlari o'tkazildi. O'tkazilgan ishlar natijasida hisoblangan soliq miqdorini boshqa hududlarda ham taqqoslash usuli bilan qo'llash ko'zda tutilgan edi, ammo olingan natijalar qoniqarsiz bo'lib chiqdi, natijada butun Fransiya hududini kadastr suratiga olish lozimligi to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu sababli 1814-yilgacha 12 million gektar hududda 36 million obyektga, 9 ming hududiy okrugda syomka ishlar o'tkazildi. Kadastr uchun suratga olish asosan fiskal va yuridik xarakterda o'tkazildi.

Bu vaqtga kelib turli mamlakatlar kadastr uchun suratga olishni boshlab yuborishdi. Filipp. II podshohlik davrida Ispaniyada birinchi marotaba ko'chmas mulkni baholash bo'yicha statistika ishlari o'tkazildi. Shuning bilan birgalikda oppozitsiyadagi yirik latifundistlar fiskal tizimni samarali qo'llash imkoniyatini bermadi. O'rta asrda kadastr uchun suratga olish va yer kadastrini yuritishning asosiy tamoyillari Rim imperiyasi davridagi kadastr ishlaridan kamdan-kam farq qilar edi (yerlar arqon yoki *jezla* yordamida to'g'ri chiziqli o'lchangan, geomertik bilimlar va hisoblashlardan bo'sh foydalanilgan), 1718-yilga kelib milanlik Djovanni Djakomo Marioni qat'iy ilmiy usullarga rioya qilingan yer uchastkalarining chegaralarini triangulyatsiya usulida va poligonometrik tarmoq bilan aniqlashga asoslangan birinchi kadastrni ishlab chiqdi.

Bu kadastr hujjati sifatida menzuladan foydalanib 1:2000 masshtabda bajarilgan barcha qishloq jamoalari muhit xaritalari hisoblangan. Xaritada alohida jamoalarning egaligidagi yer uchastkalari (parsellar), shuning bilan

birgalikda egalikning maydoni, tuproq turi, olinadigan sof foyda ko'rsatilgan, bu ma'lumotlar soliqqa tortish uchun asos bo'lib hisoblangan.

Bu kadastr o'zining sifati va aniqligi tufayli *Milan* kadastr deb nom olgan, 1760-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiritilgan va XIX asrda Fransiya, Belgiya, Avstriya, Gollandiya, Shveysariya kadastrlarini ishlab chiqish uchun namuna hisoblanadi.

Rossiyada kadastr to'g'risidagi birinchi ma'lumotlar X asrlarga tegishli bo'lib, yerni baholash va yer solig'ini yig'ish bilan bog'liq bo'lgan, 1483-yilda Pskovda Svyatogorskiy monastiri uchun yer ajratish ishlari kartografik asosda chegara belgilarini o'rnatish tartibida bajarilganligi to'g'risida huquqiy eslatmalar mavjud. Rossiyada yer kadastr karto-
grafik materiallari yerlarni tariflash, yig'ilgan yozuvlar, kuzatishlar, nazorat, chegara belgilarini o'rnatish kitoblari va joyida o'tkazilgan yer o'lchov ishlari natijalari asosida tuzilgan.

Yer o'lchov ishlari chegara chiziqlarining uzunligini o'lchashdan iborat bo'lgan "*мерной вервью*" (uzunligi 80, 40, 20 sajenga teng arqon, 1 sajen 2,1336 metr ga teng bo'lgan). Chegara chizig'i yerdagi ekin turiga qarab o'rnatilgan va "yaxshi", "o'rta", "oriq" yer deb ajratilgan.

Zamonaviy Yevropa yer kadastr tizimi ko'p jihatdan uning tushunchasi va mazmunini shakllantirgan Napoleon bilan bog'liq. Lekin har bir mamlakatda kadastr rivoji o'z sharoitlari va an'alariga asoslanadi, shuning uchun jahonda ikkita bir xil kadastr tizimini topish mumkin emas.

Mamlakatimiz hududida o'tgan asrda qozilar tomonidan yuritilgan "Temir daftar" nomli kadastr ko'rinishlaridan biri amal qilgan. Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobida keltirilishicha, yer maydonining miqdori, undan olinadigan hosil soliq miqdorini belgilangan, ekin yerlari

o'lcangan va olinadigan hosil hisobga olingan. Agarda noto'g'ri ma'lumotlar yig'ilgan bo'lsa, xizmatchilar jazolan- gan. O'lchash natijalarini maxsus davlat xodimlari va yerlar bilan shug'ullanuvchi oliy mansabdorlardan iborat **xolisa** deb ataluvchi hay'at tekshirgan. Xolisa egasiz qolgan yerlarni obod qilishga yordam bergan.

1.2. DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING TAJRIBALARI

Avstriyada 1985-yildan tashkiliy jihatdan Yer kitobi va kadastr bitta hisoblanadi va markazlashgan holda yuritiladi. Yer kitobi Federal adliya vazirligi, kadastr esa Federal Iqtisodiy masalalar vazirligi tasarrufidadir. Yer kitobi va kadastr Federal Hukumatga bo'ysunadi. Ko'chmas mulk obyektlarini shakllantirish (inventarizatsiya, baholash, kadastr suratga olish, yuridik hujjatlarni yig'ish) xususiy geodezistlar tomonidan ham olib boriladi. Kelajakda Yer kitobi va kadastrning birligi keng qamrovli geografik ma'lumotlar tizimini yanada kengaytirish asosida amalga oshirish tendensiyasi ko'zatilmoqda.

Buyuk Britaniyada Ko'chmas mulk kadastr — mulkiy huquq himoyasi tizimining funksional birligi sifatida mavjud emas. 1862-yildan yer uchastkalariga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish — yer uchastkalari nomlari Reyestri amalga kiritildi. Ko'chmas mulkni shakllantirish (inventarizatsiyalash, baholash, kadastr suratiga olish, yuridik hujjatlarni yig'ish), o'lchash ishlari bo'yicha xususiy byurolar tomonidan olib boriladi. Ular, shuningdek, kadastr yuritishni ham amalga oshiradilar. Ingliz tizimi mulkiy huquqning himoyasini

ta'minlash tizimida davlat aralashuvi (ishtiroki)ning juda kamligining namunasidir. To'la qamrovli yer-kadastr tizimini yaratish yaqin kelajakda kuzatilmayapti.

Gollandiyada Yer kitobi va kadastrni yuritish funksiyalari Uy-joy qurilishi, rejalashtirish va atrof-muhitni himoya qilish vazirligi tasarrufidagi "Kadastr" xizmatlari tomonidan olib boriladi. Kadastrni yuritish to'liq avtomatlashtirilgan. Ro'yxatdan o'tkazish va kartografik ma'lumotlar integratsiyalanish tendensiyasi asosida amalga oshirilmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasida Germaniya tizimi tashkiliy jihatdan Yer kitobi va Yer kadastriga bo'linadi. Tizim tarix davomida shunday shakllanganki, Yer kitobini yuritish — yer uchastkasiga bo'lgan yuridik ma'lumotlar Reyestri sifatida (mulkka munosabat, huquq va boshqa huquqiy holatlar) Federal adliya vazirligi (ro'yxatdan o'tkazish sudlari) tomonidan amalga oshiriladi. Yer kadastrisi esa mulkning haqiqiy holatining (tarkibining) isboti sifatida (bunda: nomi, holati, o'lchami, qurilish inshootlari, foydalanish va boshq.) yuritiladi va Federal yer vakolatida hisoblanadi. Ko'chmas mulkni shakllantirish hususiy geodezistlar tomonidan ham amalga oshiriladi.

Ma'muriy va byurokratik qiyinchiliklar yagona federal tizimni rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Tashkiliy va texnologik jihatdan kadastr xizmatlari va ro'yxatdan o'tkazish sudlarini birlashishi hamda ro'yxatdan o'tkazishni to'liq kompyuter texnologiyalariga o'tish tendensiyasi kuzatilmogda.

Fransiyada Ko'chmas mulk Reyestri — ko'chmas mulk ipotekasi va garovi kartotekalari bo'yicha Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi Asosiy huquqlar va ipotekalar reyestr xizmati tomonidan yuritiladi. Saqlash vazifasi bo'lmagan yer uchastkalari ro'yxatdan o'tkazilmaydi. Mahalliy hokimiyat organlarining kadastr xizmatlari o'lchashlar asosidagi, soliq

solish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan grafik kadastrni yuritadilar. Kadastr yuritishni kompyuter texnologiyalariga o'tkazish amalga oshirilmoqda, tarixdan shakllanib kelgan soliq kadastr bosqichma-bosqich geoaxborot tizimiga qayta shakllanib bormoqda.

AQShda to'la qamrovli kadastr mavjud emas. Yerlarni ro'yxatdan o'tkazish, o'lchash yoki markirovkalash majburiyati yo'q. Mulkni boshqa shaxsga o'tkazish: yozma shaklda tuzilgan oldi-sotdi to'g'risidagi majburiyat shartnomasi, kamida so'nggi 30 yil ichida ushbu mulkka bo'lgan huquqni isbotlashda advokat ishtiroki, tegishli yer uchastkasi bo'yicha sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan tarixiy ma'lumot va mulkni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi Jamoa reyestriga kiritiladigan hujjat kabi bir nechta etaplarda amalga oshiriladi. Reyestr xususiy sug'urta kompaniyalari tomonidan yuritiladi. Ayrim shtatlarda asosan yerlar, bino va inshootlar hisobini olib borish maqsadida ko'chmas mulk kadastrini tashkil etish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Shveysariyada kadastr tizimi ikkita organ: Federal adliya vazirligi tasarrufidagi Yer kitobi, va kantonlar tasarrufidagi kadastr vositasida butun mamlakat hududida bir xil shaklga keltirilgan (unifikatsiyalangan). Ko'chmas mulkni shakllantirish ishlari shuningdek, xususiy geodezistlar tomonidan ham olib boriladi. Mavjud tizimni Kadastr xaritalash Federal agentligi rahnamoligida Yer ma'lumotlari yagona milliy kompyuter tizimini yaratish yo'li bilan qayta tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Shvetsiyada ko'chmas mulkni shakllantirish va unga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish Shvetsiya Milliy yer xizmatining hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'liq avtomatlashtirilgan, yer axborotlari yagona ma'lumotlar banki amal qiladi. Mazkur sohada Shvetsiya dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Hozirda kompyuter tizimini isloh qilish undan bozor strukturalari tomonidan (banklar, sug'urta kompaniyalari) yanada kengroq foydalanishga, shuningdek, huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi arizalarni berishni kompyuterlashtirishga qaratilgan.

Rossiya Federatsiyasida "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq va ular bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish" Qonuniga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquq va ular bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda yagona davlat Reystrini yaratish va yuritish Adliya organlari zimmasiga yuklatilgan. Ko'chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyalash va davlat hisobini olib borish bir nechta tashkilot (organ)lar orqali amalga oshiriladi, Jumladan: Geodeziya va kartografiya Federal xizmati; Federal yer kadastr xizmati; Qurilish va uy-joy kommunal kompleksi davlat qo'mitasi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq va ular bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish borasida Adliya muassasasi hamda ko'chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyalash va davlat hisobini olib boruvchi organlar o'rtasida o'zaro hamkorlik borasida Hukumat qarori bilan Idoralararo Kengash tashkil etilgan. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq va ular bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish to'g'risida "Federal Dastur" tasdiqlangan.

Yer va mulkiy munosabatlarni tartibga solish va isloh qilish maqsadida "Davlat yer kadastrini hamda ko'chmas mulk obyektlarini davlat hisobini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish maqsadli Federal dastur" tasdiqlangan. Manfaatdor idoralarning o'zaro hamkorligi va faoliyatini muvofiqlashtirish tendensiyasi yuzaga kelgan.

1.3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISH


Davlat kadastrı tushunchasi va uning mazmuni. Tarmoqlar davlat kadastrlari Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u tabiiy, xo‘jalik obyekti yoki boshqa obyekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma‘lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Kadastr tushunchasining zamonaviy ta‘rifi sifatida aytish mumkinki, kadastr – mamlakatimiz hududidagi tabiiy resurslar va inson yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklarning joriy holatiga oid ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash va foydalanuvchilarga havola qilish tizimidir.

Tabiiy va moddiy boyliklar bir qancha turlarga bo‘linganligi uchun mutanosib ravishda davlat kadastr tizimi ham bir qancha tarmoq kadastrlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, yer kadastrı, energetika resurslari kadastrı, hayvonot olami kadastrı, temir yo‘llar kadastrı, bino va inshootlar kadastrı, suv resurslari kadastrı, o‘rmon kadastrı, arxitektura yodgorliklari va tarixiy obidalar kadastrı, aloqa kadastrı va h. Mamlakat hududidagi har qanday boylik yoki yerostida yoki yerustida joylashganligi tufayli mazkur kadastrlar ichida yer kadastrı alohida o‘rin tutadi.

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning rivojlanishni hisobga olib, tabiiy va xo‘jalik resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini majmuaviy tahlil qilish va baholash eng zarur masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Res-



publikasining “Davlat kadastrı to‘g‘risida”gi Qonuni mazmuni va mohiyati bilan mamlakatimizda Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tamoyillarini to‘liq belgilab berdi.

Ushbu qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-fevralda qabul qilingan “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 66-sonli Qarori asosida respublikamizda 21 ta davlat tarmoq kadastrlarini yaratish va yuritish bo‘yicha tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar mas‘ul etib tayinlangan.

Tarmoq kadastrlarini yaratish va yuritish bo‘yicha mas‘ul vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

– yuridik va jismoniy shaxslarni yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

– ro‘yxatga o‘tkazish jarayonidagi ma‘lumotlar bo‘yicha navbatchi elektron xaritalarni yuritish;

– barcha tuman, shahar yerlarining tezkor va aniq o‘lchovini o‘tkazish;

– topo-geodeziya ishlarining sifatini oshirish;

– geodezik asbob-uskunalar hamda ularga tegishli dasturiy ta‘minotlar, zamonaviy kompyuterlar, shuningdek, yagona dasturiy tizimni joriy qilish;

– joylarda kadastr ma‘lumotlari elektron bazasini yaratish;

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kadastr ma‘lumotlarini kiritib borish;

– ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning kompyuterlashtirilgan yagona milliy tizimini yaratish;

– yuridik va jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish;

– yuridik va jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarini axborot kommunikatsiya texnolo-

giyalarini qo'llab, "bir oyna" tamoyili bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini joriy etish.

Kelajakda ko'chmas mulk to'g'risida atributiv va grafik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yagona ma'lumotlar banki yaratilishi ko'zda tutiladi.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi. Davlat kadastrlarini yuritish tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat kadastrlarini yuritishga quyidagilar kiradi:

- kadastr obyektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

- kadastr obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish;

- kadastr obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;

- kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

- kadastr obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;

- Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;

- foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta'minlash.

Kadastr obyektlarining mulkdorlari hamda kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadastr obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risida, shuningdek, ularning holatidagi joriy o'zgarishlar haqida axborot taqdim etishlari shart.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat kadastrlari yuritilishini moliyalashtirish davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish. Kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilishi va tasdiqlanishining yuridik hujjati hisoblanadi.

Kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotlarni davlat reystrlariga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish kadastr obyektlarining barcha mulkdorlari va kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir.

Kadastr obyektlarini hisobga olish. Kadastr obyektlarini hisobga olish vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli bo'linmalari tomonidan kadastr obyektlarining chegaralari doirasida, shuningdek, aholi punktlari, tumanlar, mintaqalar, tabiiy va iqtisodiy tegrallar hamda butun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ularning amaldagi holati va ulardan foydalanilishiga ko'ra olib boriladi.

Kadastr obyektlarini baholash. Kadastr obyektlarini baholash sifat va qiymat jihatidan baholashni o'z ichiga oladi. Kadastr obyektlarini sifat jihatidan baholash ularning tabiiy va jismoniy tavsiflari asosida amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlarini qiymat jihatidan baholash ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


Kadastr hujjatlari. Kadastr obyektiga bo'lgan mulk huquqini va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar, obyektning kadastr yig'majildi, kadastr xaritasi (plani), kadastr kitobi, kadastr obyektlarining holati haqidagi hisobot kadastr hujjatlarining asosiy turlaridir.

Kadastr yig'majildi – kadastr obyektiga bo'lgan huquqni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'ladigan kadastr obyektini kadastr suratiga olish, texnik inventarizatsiya qilish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjatlari, materiallari va ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.

Kadastr xaritasi (plani) – kadastr obyektlari joylashgan yerni, ularning chegaralari, muhofaza tegralari, baholash, miqdor va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi grafik chizma hujjati bo'lib, u qog'ozda, magnet va boshqa vositalarda tuziladi.

Kadastr kitobi – kadastr obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishning asosiy hujjati hisoblanib, u kadastr obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor hamda sifat jihatdan tavsiflari va bahosi haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Kadastr obyektlarining holati to'g'risidagi hisobot – davlat kadastrining har bir turi bo'yicha belgilangan tartibda tuziladi hamda kadastr obyektlarining alohida hududlar va butun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha miqdor va sifat holati, bahosi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.



I-rasm. O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tartibi

Quyidagilar respublikamizda davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning normativ-huquqiy asoslari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996-y. 257-I-son Qaroriga muvofiq 1997-yilning 1-martidan kuchga kiritilgan)

2. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. (O‘zR 30.04.1998-y. 598-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zR 30.04.1998-y. 599-I-son Qarori bilan amalga kiritilgan)

3. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasining 04.04.2002-y. 353-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 04.04.2002 y. 354-II-son Qaroriga muvofiq amalga kiritilgan)

4. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi (1998-yil 24-dekabrda 713-I-son Qonun bilan tasdiqlangan 1998-yil 24-dekabrda 714-I-son Qaror bilan amalga kiritilgan 1999-yil 1-apreldan amalga kiritilgan)

5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2007-yil 25-dekabrda 136-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan)

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastr to‘g‘risida”gi Qonuni. (15.12.2000 y. N 171-II)

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastr to‘g‘risida”gi Qonuni. (28.08.1998-y. N 666-I)

3. O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. (09.04.2009-y. N O‘RQ-208)

4. O‘zbekiston Respublikasining “Yerosti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni (23.09.1994-y. № 2018-XII)

5. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni

6. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (26.12.1997-yil №543-I)

7. O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni

8. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni (03.12.2004-yil № 710-II)

9. O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (20.08.1999-yil № 826-I)

10. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (30.08.2001-yil № 269-II)

11. O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonuni (02.10.2007-yil №ZRU-117)

12. O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuni (15.04.1999-yil № 766-I)

13. O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonuni (31.08.2000-yil № 118-II)

14. O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni (20.08.1999-yil № 822-I)

15. O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (20.08.1999-yil № 826-I)

16. O‘zbekiston Respublikasining “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni

17. O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni (05.04.2002-yil № 362-II)

18. O‘zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi Qonuni (25.04.1997-y. № 417-I)

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi hamda Yer munosabatlari va davlat kadastrlarini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 529-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.02.2005-y. “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi № 66-sonli Qarori 3-ilovasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.05.1997-y. O‘zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari inshootlari va texnogen hosilalarining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 258-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.1997 y. “O‘zbekiston Respublikasida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi № 278-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.01.1998-y. “O‘zbekiston Respublikasining davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 11-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.03.1998-y. “O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 104-sonli Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.1998 y. “O‘zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi № 543-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2000-y. “O‘zbekiston Respublikasi o‘simlik dunyosi

obyektlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni va O'zbekiston Respublikasi hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 343-sonli Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.07.2002-y. “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi № 269-sonli Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2005-y. “Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 152-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.11.2005-y. “Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 250-sonli Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.11.1999-y. “Gidrotexnika inshootlarining kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 499-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2001-y. “O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” № 492-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2014-y. “Hududlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” №231-sonli Qarori.

Tarmoq davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda O'zbekiston Respublikasi qonunlar va qonunosti hujjatlardan tashqari mas'ul davlat organlari tomonidan: davlat kadastr obyektlari yagona klassifikatori; kadastr xizmati to'g'risida nizom; davlat kadastrini yuritish bo'yicha qo'llanma; davlat kadastr obyektlarini texnik inventarizatsiyalash va pasportlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar; davlat kadastr obyektlari

kadastr daftarini yuritish qoidalari kabi tarmoq me'yoriy texnik hujjatlari davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda davlat boshqaruvi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli organ va mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlari:

– davlat kadastrlarining yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, moliyalashtirish va investitsiya masalalarini hal qiladi;

– Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish tartibini belgilaydi;

– kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, kadastrga doir axborotni foydalanuvchilarga taqdim etish tartibini belgilaydi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi (Davyergeodez-kadastr qo'mitasi) davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Davyergeodezkadastr qo'mitasi vakolatlariga quydagilar kiradi:

– vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

– Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritadi;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarni tegishli davlat

kadastrlarini yuritish uchun zarur bo'lgan kartografiya materiallari bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi;

– davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

– mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

– Davyergeodezkadastr qo'mitasi davlat kadastrini yuritish sohasida vazifalari:

– davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

– Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan tarqoq kadastr axborotlarini yig'ish, tahlil qilish, turkumlash, saqlash va yangilashni amalga oshiradi;

– davlat yer kadastrini yuritadi;

– binolar va inshootlarning davlat kadastrini yuritadi;

– davlat Kartografiya-geodeziya kadastrini yuritadi;

– hududlarning davlat kadastrini yuritadi;

– ilmiy-tadqiqot va tajriba-texnologiya ishlarini bajardi, normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

– viloyatlar, tumanlar va aholi punktlarining ma'muriy chegaralarini belgilash (aniqlash) ishlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

– foydalanuvchilarni kadastr axborotlari bilan ta'minlaydi;

– ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va ko'chmas mulkka doir bitishuvlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

– ko'chmas mulkka huquqlar, ularning bir huquq egasidan ikkinchisiga o'tishi to'g'risidagi, ko'chmas mulkka huquqlarni chegaralash va ko'chmas mulkka doir boshqa bitishuvlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini tashkil qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlari:

– kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tashkil etadilar;

– davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtiradilar;

– tegishli hududlar davlat kadastrining yuritilishini tashkil etadilar.

№	Davlat kadastrining nomlanishi	Yaratish va yuritish uchun mas'ul davlat organi	Respublika bo'yicha yuritish uchun mas'ul tashkilot	Yurituvch tashkilot yoki bo'lim
1	Davlat yer kadastr	Davyergeodez kadastr qo'mitasi	"Ozdavoyer loyha" DILI Hududiy	Hududiy "Yermluk-kadastr" davlat korxonalar
2	Foydali qazilma konlari, belgilangan va texnogen hodislar davlat kadastr	Geologiya davlat qo'mitasi	Davlat geologiya axborot markazi DK	DGAM Davlat kadastr bo'limi
	Davlat suv kadastr: (yer osti suvlar bo'yicha)	Geologiya davlat qo'mitasi	Davlat geologiya axborot markazi DK	DGAM Davlat kadastr bo'limi
3	(suvdan foydalanish bo'yicha)	Suv xo'jaligi vazirligi	Irrigatsiya tizimlari basseyni boshqarmasi	Suv resurslari balansi va suvni tejash texnologiyalari boshqarmasi
	(yer suvlari bo'yicha)	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Gidrometeorologiya xizmati markazi	Orta osiyo gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti Suv kadastr bo'limi	Suv kadastr bo'limi
4	Davlat o'rmon kadastr	Davlat o'rmon qo'mitasi	Davlat o'rmon kadastr bo'limi	Davlat o'rmon kadastr bo'limi
5	O'simliklar dunyosi obektlari davlat kadastr	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Davlat bialogik nazorat boshqarmasi	O'simliklarni himoya qilish bo'limi
6	Hayvonot dunyosi davlat kadastr	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Davlat bialogik nazorat boshqarmasi	Hayvonot dunyosi monitoringi va kadastr bo'limi
7	Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastr	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Boshiyevsuvnazorat boshqarmasi	Davlat bialogik nazorat boshqarmasi-ning muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maxsus bo'limi
8	Binolar va inshootlar davlat kadastr	Davyergeodezkadastr qo'mitasi	Hududiy "Yermlukkadastr" davlat korxonasi	Hududiy "Yermlukkadastr" davlat korxonasi filiallari
9	Davlat shaharsozlik kadastr	Qurilish vazirligi	"ZGASHK" DK	Davlat shaharsozlik kadastr bo'limi

10	Gidrotexnika inshootlari davlat kadastri I II III kapitallik klasslari gidrotexnika inshootlari	“Davsvuxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi	“Davsvuxo‘jalik” nazorat inspeksiyasi	Gidrotexnika inshootlari kadastri bo‘limi
	III dan qiyin kapitallik klasslari inshootlarining mansubligi bo‘yicha	Suv xo‘jalik vazirligi	Irrigatsiya tizimlari basseyni boshqarmasi	Suv resurslari balansi va suvni tejash texnologiyalar boshqarmasi
	III dan qiyin kapitallik klasslari inshootlarining mansubligi bo‘yicha	“Ozbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi	“Ozenergosozlash” unitar korxonasi	Energetika obektlari kadastri sektori
11	Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastri	Madaniyat vazirligi	Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulargan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi	Tarixiy- arxeologiya bo‘limi
12	Avtomobil yo‘llari davlat kadastri	“O‘zavtoyol” davlat qo‘mitasi	Avtomobil yo‘llari ilmiy-tatqiqot instituti	AYDK bo‘limi
13	Temir yo‘llar davlat kadastri	“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati	Strategik rivojlanish qo‘mitasi	DTYK bo‘limi
14	Transport quvvatlari davlat kadastri	“Ozbekneftgaz” milliy holding jamiyati (MXJ)	“Oztransgaz” aksiyadorlik jamiyati	Transport quvvatlari davlat kadastri bo‘limi
15	Aloqa obektlari davlat kadastri	O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalar va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	Ilmiy texnik va marketing tadqiqotlar markazi	Aloqa obektlari davlat kadastri bo‘limi
16	Energetika obektlari davlat kadastri	“Ozbekenergo” aksiyadorlik jamiyati	“Ozenergosozlash” unitar korxonasi	Energetika obektlari kadastri sektori
17	Chiqindilarni ko‘mbitashlash va utilashtirish joylari davlat kadastri	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi	Boshysuvnazorat boshqarmasi	Davlat bialogik nazorat boshqarmasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maxsus bo‘limi
	Tabiiy havf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri: havfli geologik jarayonlar ro‘ beradigan zonalar (XGJRZ) bo‘yicha	Davlat geologiya qo‘mitasi	“O‘zbekgidrogeologiya” davlat geologiya korxonasi	(XGJRZ) bo‘limi
18	seyismik havf yuqori bo‘lgan zonalar (SXYUZ) bo‘yicha	Fanlar akademiyasi	Seysmologiya instituti	(SXYUZ) bo‘limi
	gidrometeorologiya hodisalari havf yuqori bo‘lgan zonalar (GMHXYUZ) bo‘yicha	Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi gidrometeorologiya xizmati markazi	Meteorologik o‘lchovlar va suv kadastr boshqarmasi	Meteorologik o‘lchovlar va suv kadastr boshqarmasi

	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri; kuchli ta'sir qiluvchi himikatlar, pestitsidlar, radioizotop buyumlar, radioaktiv va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish obyektlari bo'yicha	O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi	Respublika davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarining kadastri
19	Odamlarni evakuatsiya yoki ko'chirishni talab qiladigan havf yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha	Favqulodda vaziyatlar vazirligi	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarining kadastri markazi	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarining kadastri markazi
	yadro fizika korxonalarida radiatsiya xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha	Fanlar akademiyasi	Yadro fizika instituti	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarining kadastri markazi
	portlash va yong'in chiqishi xavfi yuqori bo'lgan zonalar (obyektlar) bo'yicha	Ichki ishlar vazirligi Davlat yong'in xavfsizligi xizmati	Davlat yong'in xavfsizligi xizmati	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarining kadastri markazi
	ishlab chiqarish obyektlarida, portlash-yong'in chiqishi va radiatsiya xavfi mavjud bo'lgan obyektlarda avariya holari sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori havfli zonalar bo'yicha	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi "Sanoatga kontexnazorat" DI	Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarining bosh kadastri markazi	tarmoq va mintaqaviy inspeksiyalar
20	kartografiya-geodeziya davlat kadastri	Davlat-geodezika qo'mitasi	Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi	Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi
21	Hududlar davlat kadastri	Davlat-geodezika qo'mitasi	Davlat kadastrlari geodeziya va kartografiya	Hududiy Yermulkkadastri davlat korxonasi Yuman (shahar) Yermulkkadastri davlat korxonasi va uning tuman (shahar) filiallari

1.4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI KADASTR BIRLIKLARIGA BO‘LISH YER UCHASTKALARI ULARDA JOYLASHGAN BINOLAR VA INSHOOTLARNING KADASTR RAQAMINI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlaridagi yer uchastkalari, binolar va inshootlarga, ularning turlaridan qat’i nazar, kadastr raqamlari beriladi. Kadastr raqamlarini berish va hisobga olish yer uchastkalariga, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, davlat yer kadastrini hamda binolar va inshootlar davlat kadastrini yaratish va yuritish ishlarining zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr birliklariga bo‘lish tarkibi va prinsiplari

Kadastr bo‘yicha bo‘lish, bu — O‘zbekiston Respublikasi hududini belgilangan tartibda kartografik materiallarda (xaritalarda, planlarda, sxemalarda) kadastr birliklariga (zonalar, massivlar, mavzelar) bo‘lishdir.

Kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr raqami berish tizimi ko‘chmas mulkni hisobga olishning yagona tizimida har qanday yer uchastkalari, binolar va inshootlarni bir xilda identifikatsiyalashni ta‘minlashi kerak.

Hududlarni kadastr birliklariga bo‘lish har bir tumanda va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarga bo‘ysunuvchi shaharlarda tashkil etiladi. Kadastr bo‘yicha bo‘lish ishlari respublikaning har bir tumanida (shahrida) tashkil etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar), kadastr zonalari (bir nechta kadastr massivlarining birlashmasi), kadastr massivlari (bir nechta kadastr mavzelarining birlashmasi), kadastr mavzolari (bir

nehta yer uchastkalarining birlashmasi) va yer uchastkalari O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish birliklari hisoblanadi.

Ayrim holatlarda tuman va shahar hududining xususiyatlariga, yer uchastkalarining soniga, katta-kichikligiga qarab, ayrim zonalar bitta massivdan (massivga 01 kodi beriladi), ayrim massivlar bitta mavzedan (mavzega 01 kodi beriladi) va ayrim mavzelar bitta yer uchastkasidan (yer uchastkasiga 0001 kodi beriladi) tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Ma'muriy tuman (shahar) hududlarini kadastr zonalariga bo'lish

Zonalar. Ma'muriy tuman (shahar) hududini kadastr bo'lib, ular tumanda joylashgan — qishloqlar, ovullar va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar (shaharchalar) hududlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga hamda viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar hududini bo'lishda kadastr zonolari sifatida shahar tumanlari (mavjud bo'lsa) yoki turli (tabiiy, imoratning qurilishi xususiyati, foydalanish maqsadi kabi) belgilari bo'yicha ajralib turadigan shaharlar qismlari, masalan: sanoat zonasi, turarjoy massivlari, istirohat bog'lari, dam olish zonolari va shu kabilar, qabul qilinadi.

Kadastr zonolari chegaralari kadastr massivlarining tashqi chegaralari tabiiy obyektlar (daryolar, temir yo'llar, magistral kanallar, kollektorlar, boshqa muntazam obyektlar) bo'ylab o'tishi kerak.

Kadastr zonasini kadastr massivlariga bo'lish. Kadastr massivlari kadastr zonasining shartli ravishda bo'lingan birligi bo'lib, massiv sifatida qishloq aholi punktlari, tabiiy va sug'orish sharoitlari bilan ajralib turadigan qishloq xo'jaligi va boshqa maqsadlardagi yerlar qabul qilinadi. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda (shaharchalarda) kadastr massivlari sifatida mahalla hududi yoki shahar va shaharchalarning ayrim qismlari qabul qilinadi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISH	6
<u>1.1.</u> Kadastr ishlarining rivojlanish tarixi	6
<u>1.2.</u> Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarning tajribalari	13
<u>1.3.</u> O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritish	17
<u>1.4.</u> O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr birliklariga bo‘lish hamda kadastr raqamlarini shakllantirish	33
<u>1.5.</u> Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish	44
2-BOB. KO‘CHMAS MULK KADASTRLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI	52
<u>2.1.</u> Davlat yer kadastr	52
<u>2.2.</u> Binolar va inshootlar davlat kadastr	61
<u>2.3.</u> Davlat shaharsozlik kadastr	69
<u>2.4.</u> Madaniy meros obyektlari davlat kadastr	76
<u>2.5.</u> Gidrotexnika inshootlari davlat kadastr	88
3-BOB. CHIZIQLI KADASTRLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI	93
<u>3.1.</u> Avtomobil yo‘llari davlat kadastr	93
<u>3.2.</u> Temir yo‘llar davlat kadastr	99
<u>3.3.</u> Aloqa obyektlari davlat kadastr	105
<u>3.4.</u> Energetika obyektlari davlat kadastr	113
<u>3.5.</u> Yetkazib berish quvurlari davlat kadastr	118
<u>3.6.</u> Kartografiya-geodeziya davlat kadastr	125

4-BOB.	TABIYIY RESURSLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI	130
	<u>4.1.</u> Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri	130
	<u>4.2.</u> Davlat suv kadastri	138
	<u>4.3.</u> Davlat o'rmon kadastri	150
	<u>4.4.</u> O'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastri	155
	<u>4.5.</u> Hayvonot dunyosi davlat kadastri	161
	<u>4.6.</u> Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastri	167
5-BOB.	TABIYIY HUDUDLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI	175
	<u>5.1.</u> Hududlar davlat kadastri	175
	<u>5.2.</u> Qo'riqlanadigan tabiiy hududlar davlat kadastri	196
	<u>5.3.</u> Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri	203
	<u>5.4.</u> Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri	212
6-BOB.	DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMIGA TEGISHLI MA'LUMOTLAR TARKIBI VA ULARNI TAQDIM ETISH TARTIBI	222
	<u>6.1.</u> Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli ma'lumotlar tematik qatlamlari	222
	<u>6.2.</u> Davlat kadastrlari yagona tizimiga (DKYAT) taqdim etiladigan ma'lumotlar tarkibi	231